

O'zbekistonda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


2026-yil yanvar-iyun oylari uchun (dastlabki ma'lumotlar)

- I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi.
- II. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.
- IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.
- V. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

I. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo'yicha o'zgarishi dinamikasi

O'zbekistonda 2026-yil yanvar-iyun oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **7 091,1** ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **18,4 %** ga o'sgan.

Yillar kesimida o'rtacha oylik ish haqi, yanvar-iyun, ming so'mda



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(yillik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(choraklik\)](#)

[O'rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(yillik\)](#)

II. Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar 2026- yilning yanvar-iyun oylari uchun keltirilgan bo'lib, 2025-yilning mos davri bilan taqqoslangan.

	Nominal ish haqi, ming so'mda	O'sish sur'ati, %da (o'tgan yilning mos davriga nisbatan)
O'zbekiston Respublikasi	7 091,1	118,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5 556,6	116,2
Andijon viloyati	5 683,6	115,1
Buxoro viloyati	5 618,2	116,9
Jizzax viloyati	5 399,4	120,4
Qashqadaryo viloyati	4 864,7	117,2
Navoiy viloyati	8 722,7	116,4
Namangan viloyati	5 190,7	119,4
Samarqand viloyati	5 192,7	117,0
Surxondaryo viloyati	4 937,3	115,8
Sirdaryo viloyati	5 604,9	116,8
Toshkent viloyati	6 675,7	117,8
Farg'ona viloyati	5 163,5	116,0
Xorazm viloyati	5 499,8	116,3
Toshkent shahri	12 013,9	118,2

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

Hududlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Toshkent shahrida **12 013,9** ming so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **18,2 %** ga o'sganligi kuzatildi.

Shuningdek, bu ko'rsatkich Jizzax viloyatida **5 399,4** ming so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **120,4 %**), Namangan viloyatida **5 190,7** ming so'mni (**119,4 %**), Toshkent viloyatida **6 675,7** ming so'mni (**117,8 %**), Qashqadaryo viloyatida **4 864,7** ming so'mni (**117,2 %**), Samarqand viloyatida **5 192,7** ming so'mni (**117,0 %**) va Buxoro viloyatida **5 618,2** ming so'mni (**116,9 %**) tashkil etgan.

Shu bilan birga, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Sirdaryo viloyatida **5 604,9** ming so'm (**116,8 %**), Navoiy viloyatida **8 722,7** ming so'm (**116,4 %**), Xorazm viloyatida **5 499,8** ming so'm (**116,3 %**), Qoraqalpog'iston Respublikasida **5 556,6** ming so'm (**116,2 %**), Farg'ona viloyatida **5 163,5** ming so'm (**116,0 %**), Surxondaryo viloyatida **4 937,3** ming so'm (**115,8 %**) hamda Andijon viloyatida **5 683,6** ming so'm (**115,1 %**) miqdorida qayd etilib, boshqa hududlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylaridagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori 2025-yilning mos davriga nisbatan taqqoslangan. Bu taqqoslash orqali sohalar kesimida farqlar va o'zgarishlar tahlil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turi nomi	Nominal ish haqi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da (o'tgan yilning mos davriga nisbatan)
O'rtacha	7 091,1	118,4
Sanoat	8 267,0	115,4
Qurilish	7 027,9	119,9
Savdo	7 650,5	113,1
Tashish va saqlash	11 070,0	122,8
Yashash va ovqatlanish	5 189,6	111,2
Axborot va aloqa	17 417,4	115,3
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati	19 100,2	117,5
Ta'lim	4 977,1	120,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4 440,3	120,1
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	5 858,1	116,2

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

O'rtacha oylik nominal ish haqi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganda, eng yuqori o'sish sur'atlari tashish va saqlash sohasida qayd etildi. Xususan, mazkur sohada 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **122,8 %**ni tashkil etib, ish haqi miqdori **11 070,0** ming so'mga yetgan.

Shuningdek, ta'lim sohasida ham sezilarli o'sish qayd etilib, ish haqi miqdori **4 977,1** ming so'mni tashkil etdi (o'sish – **20,3 %**). Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishida o'rtacha ish haqi **4 440,3** ming so'mni tashkil etib, **20,1 %**ga o'sdi. Qurilish sohasida esa o'rtacha oylik ish haqi **7 027,9** ming so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-iyuniga nisbatan **19,9 %**ga oshgani qayd etildi.


Shu bilan birga, bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati yo'nalishida o'rtacha oylik ish haqi **19 100,2** ming so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan **17,5 %**ga oshdi), san'at, ko'ngil ochish va dam olish yo'nalishida **5 858,1** ming so'm (**16,2 %**ga), sanoat sohasida o'rtacha ish haqi **8 267,0** ming so'm (**15,4 %**ga), axborot va aloqa sohasida **17 417,4** ming so'm (**15,3 %**ga), savdo sohasida **7 650,5** ming so'm (**13,1 %**ga), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida esa o'rtacha oylik ish haqi **5 189,6** ming so'mni tashkil etib, **11,2 %**ga o'sdi.

IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining so'nggi besh yildagi o'zgarishi tahlil etilganida, 2026-yilning yanvar-iyun oylarida bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida ish haqi miqdori **19 100,2** ming so'mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **9 831,5** ming so'mga oshganligi kuzatildi.


Shuningdek, so'nggi besh yilda axborot va aloqa sohasi bo'yicha ish haqi miqdori **10 533,4** ming so'mga, tashish va saqlash sohasida **6 439,6** ming so'mga, sanoat sohasida **3 717,4** ming so'mga, savdo sohasida **4 078,3** ming so'mga, qurilish sohasida **2 755,7** ming so'mga, san'at, ko'ngil ochish va dam olish yo'nalishida **2 936,4** ming so'mga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida **2 389,2** ming so'mga, ta'lim sohasida **2 388,1** ming so'mga hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida **2 066,5** ming so'mga oshgan.

O'rtacha oylik ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zgarish dinamikasi, yanvar-iyun, ming so'mda




Sanoat sohasida o'rtacha oylik ish haqi **8 267,0** ming so'mni tashkil etgan. Sanoatning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori – tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda **11 709,5** ming so'm, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda **10 191,3** ming so'm, ishlab chiqarish sanoatida **7 867,3** ming so'm, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda **5 313,4** ming so'm qayd etilgan.

Sanoat sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, yanvar-iyun, ming so'mda




Savdo sohasida o'rtacha oylik ish haqi **7 650,5** ming so'mni tashkil etgan. Savdoning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori – avtomobil va motosikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash tarmog'ida **10 754,3** ming so'm, avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda **8 172,8** ming so'm, avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdoda **6 922,3** ming so'm qayd etilgan.

Savdo sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, yanvar-iyun, ming so'mda




Tashish va saqlash sohasida o'rtacha oylik ish haqi **11 070,0** ming so'mni tashkil etgan. Uning ayrim yo'nalishlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori – ombor xo'jaligi va yordamchi transportda **12 314,4** ming so'm, quruqlikdagi va quvur transporti sohasida **9 521,2** ming so'm, pochta va kuryerlik faoliyati sohasida **4 587,1** ming so'm ekani qayd etilgan.

Tashish va saqlash sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, yanvar-iyun, ming so'mda




Axborot va aloqa sohasida o'rtacha oylik ish haqi **17 417,4** ming so'mni tashkil etgan. Sohaning ayrim yo'nalishlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi – kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar sohasida **22 234,7** ming so'm, axborot xizmati ko'rsatish sohasida **21 410,3** ming so'm, aloqa sohasida **12 970,4** ming so'm qayd etilgan.

Axborot va aloqa sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, yanvar-iyun, ming so'mda




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi **19 100,2** ming so'mni tashkil etgan. Uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi – majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari qayta sug'urtalashda **26 013,9** ming so'm, moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va sug'urtalash bo'yicha yordamchi faoliyatda **24 895,9** ming so'm, sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlarda **18 431,6** ming so'm qayd etilgan.

Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi,
yanvar-iyun, ming so'mda



Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi,
yanvar-iyun, ming so'mda

Ta'lim sohasida o'rtacha oylik ish haqi **4 977,1** ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi oliy ta'lim sohasida **12 047,1** ming so'mni, texnik va professional ta'lim sohasida **5 372,2** ming so'mni, umumiy o'rta ta'lim sohasida **4 669,4** ming so'mni, maktabgacha ta'lim sohasida esa **2 720,9** ming so'mni tashkil etgan.



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

V. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

O'zbekiston bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar korxona va tashkilotlar tomonidan elektron shaklda, onlayn taqdim etilgan statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi korxonalarisiz shakllantirilgan.

Respublikaning barcha korxona va tashkilotlari, jumladan, kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar yilda bir marotaba shakllantirilib, e'lon qilinadi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-son Farmoniga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlari va fermer xo'jaliklari statistika hisobotlarini statistika idoralariga yilda bir marotaba taqdim etishi belgilangan.

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

Hisobot oyi uchun nominal hisoblangan ish haqi quyidagicha hisoblanadi:

$$W_n = \frac{F}{L}$$

bu yerda:

W_n – nominal hisoblangan ish haqi;

F – hisobot oyi uchun jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;

L – hisobot oyi uchun xodimlarning o'rtacha soni;

Nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqini hisoblash Milliy statistika qo'mitasining 2025-yil 30-maydagi 8-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2)ning seksiya va bo'limlari bo'yicha e'lon qilingan ma'lumotlar muayyan seksiya va bo'lim tarkibiga kiruvchi barcha iqtisodiy faoliyat turlariga oid ma'lumot mavjudligini anglatmaydi.

Metama'lumot uchun havola:

[Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom](https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/1018-milliy-gender-statistikasi-ko-rsatkichlarini-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2)

(<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/1018-milliy-gender-statistikasi-ko-rsatkichlarini-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>)

